

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR VA KICHIK BIZNESNI KREDITLASHNING AHOLI BANDLIGIGA TA'SIRI

Halimov Murodillo

Muassasa: Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Elektron pochta: murodilohalimov2000@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22690359>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 9-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 10-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Muammoning qo'yilishi. O'zbekiston bank tizimida real sektor va kichik biznesni kreditlash so'nggi yillarda jadal o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Biroq kredit resurslarining nisbatan qimmatligi, garov ta'minoti va kredit tarixi yetishmovchiligi, shuningdek kreditlash natijasida yaratilgan ish o'rinlarini rasman hisobga oluvchi yagona monitoring tizimining yo'qligi ushbu o'sishning aholi bandligiga real ta'sirini ilmiy asoslangan holda baholashni qiyinlashtiruvchi asosiy omillar sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Tadqiqot maqsadi. 2023–2026-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan real sektor va kichik biznesni kreditlashning miqdoriy dinamikasini hamda uning aholi bandligi ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish, shu asosda kredit-bandlik bog'liqligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Metodologiya. Tadqiqotda statistik tahlil, trend tahlili, taqqoslash va SWOT tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, Milliy statistika qo'mitasi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hisobotlari, shuningdek ilmiy nashrlarning tahliliy ma'lumotlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar:

tijorat banki, real sektorni kreditlash, kichik va o'rta biznes, aholi bandligi, ishsizlik darajasi, kredit portfeli, moliyaviy inklyuzivlik, subsidiyalangan kreditlar.

Asosiy natijalar.

- Tijorat banklarining jami kredit portfeli 2023-yil boshidagi 390,0 trln. so'mdan 2025-yil boshida 533,1 trln. so'mga yetdi, ikki yil ichida bu ko'rsatkich 36,7 foizga o'sdi;
- Shu bilan bir vaqtda ishsizlik darajasi 2023-yil yakunidagi 6,8 foizdan 2025-yil uchinchi choragida 4,9 foizga, ya'ni 1,9 foiz bandga pasaydi, band aholi soni 14,81 mln kishiga yetdi;
- Kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha taqsimotida sanoat (25%) va ipoteka (12,7%) yetakchilik qilmoqda, biroq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga yo'naltirilgan kreditlar ulushi hali ham resurslarning yarmidan kamini tashkil etadi;
- Yuridik shaxslarga, ya'ni kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2023-yildagi 288,6 trln. so'mdan 2025-yilda 356,0 trln. so'mga o'sdi, bu real sektorni moliyalashtirish faolligining ortganidan dalolat beradi;
- Kredit portfeli o'sishi bilan ishsizlik darajasi pasayishi o'rtasida vaqtinchalik statistik hamohanglik aniqlandi, biroq bevosita sabab-oqibat bog'liqligini isbotlash uchun qo'shimcha ekonometrik tahlil zarurligi asoslandi.

1-jadval

Tijorat banklari kredit portfeli o'sishi va band aholi soni dinamikasi

Yillar	Kredit portfeli (trln. so'm)	Yillik o'sish (%)	Ishsizlik darajasi (%)	Asosiy drayverlar
2023-y.	390,0	—	6,8%	Bank tizimini isloh qilishning boshlang'ich bosqichi
2024-y.	446,8	+14,6%	5,8%	Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari
2025-y.	533,1	+19,3%	4,9%	Subsidiyalangan kreditlar, raqamli skoring
2026-y. (may)	615,0*	+15%*	—	Real sektorni kreditlash va hududiy dasturlar

Manba: Markaziy bank, Milliy statistika qo'mitasi va Bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. * — taxminiy ko'rsatkich.

Xulosalar va takliflar.

O'zbekiston tijorat banklari tizimi real sektorni kreditlash orqali miqdoriy o'sish bosqichidan bandlikka yo'naltirilgan sifatli o'sish bosqichiga o'tish arafasida turibdi. Kredit-bandlik bog'liqligini institutsional jihatdan mustahkamlash, kredit resurslarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimotini optimallashtirish 2027-yilgacha real sektorni kreditlash hajmini yanada oshirish va barqaror ish o'rinlari yaratish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- Markaziy bank va Bandlik vazirligi o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini integratsiyalash orqali “kredit—ish o'rne” monitoring tizimini joriy etish;
- garov ta'minotiga ega bo'lmagan kichik biznes subyektlari uchun davlat kafolatlari asosidagi kredit kafolat fondlari tizimini kengaytirish bu foiz stavkalarini 2–4 foiz bandga pasaytirish imkonini beradi;
- agrar va sanoat hududlarida maqsadli kredit liniyalarini joriy etish orqali mintaqalararo bandlik tengsizligini kamaytirish;
- rasmiy mehnat shartnomasi asosida yangi ish o'rni yaratgan tadbirkorlar uchun qo'shimcha foiz subsidiyalari va soliq imtiyozlarini nazarda tutuvchi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kredit va depozitlar statistikasi (2023–2026-yy.). <https://cbu.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining YaIM va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ma'lumotlari. <https://stat.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ishsizlik darajasi bo'yicha matbuot ma'lumotlari, 2025-yil.
5. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali, 12-son, 2025-yil.